

Sana: “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 201\_\_\_ yil

Sinf:6 “\_\_\_”

### Fan: Geografiya

**Mavzu:** Kirish: Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida nimalar o'rganiladi?

#### Darsning maqsadi:

- a) Ta'limiylar: Mavzu haqida tushuncha berish, dunyoqarashini kengaytirish
- b) Tarbiyaviy: Tabiatni asrash ruhida tarbiyalash
- d) Rivojlantiruvchi: BKMLarni rivojlantirish

**Kompetensiya:** Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi.

**Darsning turi:** yangi tushuncha bilimlarni shakllantiruvchi, umumlashtiruvchi , mustahkamlovchi, ko'nikma va malakalarni tahlil qiluvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi

**Dars metodi:** an'anaviy, zamonaviy, interfaol, aqliy hujum, tarmoqlash, so'zlash, tushuntirish, leksiya suhbat, rasmlardan foydalanish, darslik bilan ishlash, mustaqil ishlash, og'zaki so'rov (individual frontal)

**Dars jahozi:** didaktik jadval, rasmlar, texnik jihoz va darslik, atlas, xarita

#### DARSNING BORISHI:

**Tashkiliy qism:** salomlashish, davomatni aniqlash, darsga tayyorgarlikni nazorat qilish.

**O'tilgan mavzuni mustahkamlash:** 1. Geografik qobiq nima?      2. Geografik qobiqlar nechiga bo'linadi?  
3. Materiklar va okeanlar soni nechta?

**Yangi mavzuni tushuntirish:** Yer yuzida 6 ta materik bor. Materiklarni o'rganish Afrikadan boshlanadi chunki u tabiatning barcha xususiyatlariga ko'ra takrorlanmas va o'ziga xos bo'lган quruqlikdir. Afrikadan so'ng Avstraliya, Antarktida, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika va Yevrosiyo ketma-ket o'rganiladi. Shuningdek, Yer yuzida 6 ta qit'a: Afrika, Avstraliya, Antarktida, Amerika, Yevropa va Osiyo ajratilgan. Okeanlar. Dunyo okeanining materiklar oraliq'idagi qismlari okean deb ataladi. Dunyo okeani 4 qismga bo'linadi: Tinch okeani – 180 mln kv km, Atlantika okeani – 91 mln kv km, Hind okeani 76 mln kv km, Shimoliy Muz okeani 14 mln kv km. Ba'zi olimlar beshinchi Janubiy okeanni ham ajratadilar. Dengiz, qo'ltilq, bo'g'ozlar okeanlarning kichik qismlaridir. Qirg'oq chizig'i. Okean yoki dengiz yuzasi bilan quruqlik yuzasi tutashgan chegara qirg'oq chizig'i deyiladi. Qirg'oq chizig'i suv havzasasi bilan quruqlik o'rtaqidagi chegara hisoblanadi. Materik — tektonik tuzilishiga ko'ra bir butun yirik quruqlikdir. Yer yuzida oltita materik bor: Yevrosiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Antarktida va Avstraliya. Materiklarni o'rganish Afrikadan boshlanadi. Chunki u tabiatining barcha xususiyatlariga ko'ra takrorlanmas hamda o'ziga xos bo'lган quruqlikdir. Afrikadan so'ng Avstraliya, Antarktida, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika va Yevrosiyo ketma- ket o'rganiladi. Shuningdek, Yer yuzida oltita qit'a — Afrika, Avstraliya, Antarktida, Amerika, Yevropa va Osiyo ajratilgan. Qit'a — kishilik jamiyatining taraqqiyoti davomida tarkib topgan tarixiy tushunchadir. Okeanlar. Dunyo okeanining materiklar oraliq'idagi qismlari okean deb ataladi.

**Yangi mavzuni mustahkamlash:** 1. Yer yuzida nechta materik va qit'alar bor? Okeanlarchi? 2. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi nimalarini o'rganadi? 3. Qirg'oq chizig'i nima?

**O'quvchilarni baholash:** Darsni yakunlab, faol qatnashganlarni izohlab, adolatli baholash va e'lon qilish

**Uyga vazifa berish:** Geografik xaritalar va ularning turlari. Atlaslar, globuslar

Sana:

O'TIBDM:

Sana: “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 201\_\_ yil

Sinf:6 “\_\_\_”

### Fan: Geografiya

**Mavzu:** Geografik xaritalar va ularning turlari. Atlaslar, globuslar

#### Darsning maqsadi:

- a) Ta’limiy: Mavzu haqida tushuncha berish, dunyoqarashini kengaytirish
- b) Tarbiyaviy: Tabiatni asrash ruhida tarbiyalash
- d) Rivojlantiruvchi: BKMLarni rivojlantirish

Kompetensiya: Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi;

**Darsning turi:** yangi tushuncha bilimlarni shakllantiruvchi, umumlashtiruvchi, mustahkamlovchi, ko’nikma va malakalarni tahlil qiluvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi

**Dars metodi:** an’anaviy, zamonaviy, interfaol, aqliy hujum, tarmoqlash, so’zlash, tushuntirish, leksiya suhbat, rasmlardan foydalanish, darslik bilan ishlash, mustaqil ishlash, og’zaki so’rov (individual frontal)

**Dars jihizi:** didaktik jadval, rasmlar, texnik jihoz va darslik, atlas, xarita

#### DARSNING BORISHI:

**Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash, darsga tayyorgarlikni nazorat qilish.**

**O’tilgan mavzuni mustahkamlash:** 1. Yer yuzida nechta materik va qit’alar bor? Okeanlarchi? 2. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi nimani o’rganadi? 3. Qirg’oq chizig’i nima?

**Yangi mavzuni tushuntirish:** Geografik xaritalar g’oyat ko’p va xilma-xildir. Xaritalar – o’rganish, hisobga olish, saqlash va boshqa maqsadlar uchun mo’ljallangan bo’lishi mumkin. Xaritalar to’rtta asosiy belgisiga ko’ra, ya’ni xaritada tasvirlangan hududning katta-kichikligiga, masshabiga, mazmuniga va ko’zda tutilgan maqsadiga qarab guruhlarga ajratiladi. Mazmuniga ko’ra xaritalar: umumgeografik va mavzuli xaritalarga bo’linadi. Umumgeografik xaritalarda geografik landshaftning tashqi ko’rinishi tasvirlanadi. Yagona dastur asosida bir butun asar sifatida bajarilgan geografik xaritalarning sistemali to’plamiga geografik atlas deyiladi. Globus – Yer sharining kichraytirilgan modeli bo’lib, Yerning tashqi qiyofasini hamda uning yirik qismlari nisbatini eng to’g’ri va ko’rgazmali tasvirlaydi. Xaritalarning to’plami uchun “Atlas” nomi Merkator tomonidan 1595-yilda taklif etilgan. O’rta Osiyoda birinchi bo’lib Abu Rayhon Beruniy shimaliy yarimsharning globusini yasagan. Birinchi mukammalroq geografik globusni 1492-yilda Martin Behaym yasagan. Yagona dastur asosida bir butun (yaxlit, bo’linmas) asar sifatida bajarilgan geografik xaritalarning sistemali to’plamiga *geografik atlas* deb aytildi. Qadimgi yunon olimi Klavdiy Ptolemeyning geografik xaritalar to’plamini (eramizning II asri) birinchi geografik atlas deb hisoblash mumkin.

**Yangi mavzuni mustahkamlash:** 1. Geografik xaritalar qanday turlarga bo’lnadi? 2. Geografik xarita va globuslar masshabiga ko’ra qanday turlarga bo’linadi? 3. Dastlabki atlas, globus kimlar tomonidan yaratilgan?

**O’quvchilarni baholash:** Darsni yakunlab, faol qatnashganlarni izohlab, adolatli baholash va e’lon qilish

**Uyga vazifa berish:** Geografik xaritalar va ularning turlari. Atlaslar, globuslar

Sana:

O’TIBDM:

Sana: “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 201\_\_ yil

Sinf:6 “\_\_\_”

### Fan: Geografiya

**Mavzu:** Geografik qobiqning chegaralari, xususiyatlari

#### Darsning maqsadi:

- a) Ta’limiy: Mavzu haqida tushuncha berish, dunyoqarashini kengaytirish
- b) Tarbiyaviy: Tabiatni asrash ruhida tarbiyalash
- d) Rivojlantiruvchi: BKMLarni rivojlantirish

Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarini kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi;

**Darsning turi:** yangi tushuncha bilimlarni shakllantiruvchi, umumlashtiruvchi , mustahkamlovchi, ko’nikma va malakalarini tahlil qiluvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi

**Dars metodi:** an'anaviy, zamonaviy, interfaol, aqliy hujum, tarmoqlash, so’zlash, tushuntirish, leksiya suhbat, rasmlardan foydalanish, darslik bilan ishlash, mustaqil ishlash, og’zaki so’rov (individual frontal)

**Dars jihizi:** didaktik jadval, rasmlar, texnik jihoz va darslik, atlas, xarita

#### DARSNING BORISHI:

**Tashkiliy qism:** salomlashish, davomatni aniqlash, darsga tayyorgarlikni nazorat qilish.

**O’tilgan mavzuni mustahkamlash:** 1. Geografik xaritalar qanday turlarga bo’lnadi? 2. Geografik xarita va globuslar masshtabiga ko’ra qanday turlarga bo’linadi? 3. Dastlabki atlas, globus kimlar tomonidan yaratilgan?

**Yangi mavzuni tushuntirish:** Geografik qobiq haqidagi ma’limotni 1966-yilda rossiyalik olim A.A.Grigoryev ishlab chiqdi. Atmosferaning quyi qalami – troposfera, litosferaning ustki g’ovak qatlami, gifrosfera va biosferalarni o’z ichiga olgan hamda o’zaro ta’sir etib turadigan yaxlit qobiq Yerning geografik qobig’I deb ataladi. Geografik qobiqning yuqori va quyi chegarasini, uning qalinligini turli olimlar turlicha o’tkazishadi va turlicha belgilashadi. Geografik qobiq Yernin boshqa qobiqlaridan gaqt o’ziga xos bo’lgan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: birinchi xususiyati, geografik qobiq komponentlari – litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalar doimiy ravishda o’zaro aloqadorlikda bo’lishi va bir-biriga ta’sir etishidir; ikkinchi xususiyat, modda va energiya almashinish jarayonining bo’lib turishidir. Geografik qobiqning vertical va gorizontal tuzilishi ham uning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Geografik qobiqning xususiyatlari. Geografik qobiq Yeming boshqa qobiqlaridan faqat o’ziga xos bo’lgan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: *birinchi xususiyati*, geografik qobiq komponentlari— litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalar doimiy ravishda o’zaro aloqadorlikda bo’lishi va bir-biriga ta’sir etishidir; *ikkinchi xususiyati*, modda va energiya almashinish jarayonining bo’lib turishidir; *uchinchchi xususiyati*, geografik qobiqda organik hayotning, jumladan, insoniyat jamiyatining mavjudligidir.

**Yangi mavzuni mustahkamlash:** 1. Geografik qobiqning o’rtacha qalinligi va chegaralari haqida so’zlang. 2. Geografik qobiqning xususiyatlari deganda nimani tushunasiz? 3. Ozon pardasi qanday vazifani bajaradi?

**O’quvchilarini baholash:** Darsni yakunlab, faol qatnashganlarni izohlab , adolatli baholash va e’lon qilish

**Uyga vazifa berish:** Geografik qobiqning chegaralari, xususiyatlari

Sana:

O’TIBDM:

# **Kompetensiya asosida tuzilgan**

**Yillik dars ishlanmani to'liq olishni istaysizmi?**

## **Bog'lanish uchun:**



**Tel: + 99890 7269514**



**E-Pochta: dars-ishlanma@mail.ru**



**Telegram: @Dars\_ishlanma**

Dars ishlanmalar moxir o'qituvchilar tomonidan tuzib chiqildi. Dars ishlanmalardan darsning texnologiyasini, metodlarini va kompetensiyalarini o'rghanishda foydalaning! Word shaklda beriladi